

## Vatan himoyasi uning g'oyasi

Ona yurtimiz har doim o'zining mard, jasur yigitlari bilan faxrlanib kelgan. Yigitlarimiz ota-ona va oilasini, o'zi yashayotgan yurt tuprog'ini muqaddas bilib, Vatan himoyasi uchun doimo shay turishni burch deb hisoblagan. Ushbu bayramning nishonlanishi xalqimizning o'z armiyasiga nisbatan cheksiz hurmatini, yigitlariga nisbatan iftixorini bildiradi.

Vatanni sevish, ardoqlash, himoya qilish – har birimizning sharaflı burchimizdir. Vatan himoyasi– muqaddas burch. Har yili Vatan himoyachilari bayrami arafasida bir-birlarini tabriklayotgan nafaqat harbiylar, balki yurtimizda faoliyat olib borayotgan boshqa kasb egalari, shuningdek o'quvchi-talabalar, iqtisodchilar, injenerlar, agronomlar, sportchilar ham bir- birlarini shu aziz bayram bilan tabriklayotganida yuragimiz yorishib ketadi.

Shunday ekan, Vatan himoyachilarini ushbu muborak bayram bilan tabriklaymiz hamda ularga oilaviy tinchlik-xotirjamlik, sog'liq-salomatlik tilab qolamiz. Hayotingiz doimo sharaf va zafarlarga to'liq bo'lsin. Vatanimiz osmoni doimo musaffo bo'lishi uchun har doimgidek o'z kuch-g'ayratingizni ayamang! Barchani Vatan himoyachilari kuni bilan tabriklayman. Institut yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti yetakchilarining tashabbusi bilan "Iqtidor-film" studiyasi tomonidan ishlangan ushbu videorolikni bayram tuhfası o'rnida qabul qilasiz degan umiddamiz.

**"Gumanitar fanlar" kafedrasining o'qıtuvchisi Bahrıddin Muqimov**

**Institut yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti yetakchilari rahbari Akmal Berdimurodov  
axboroti**